

Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, Viloyatda 3214 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 819 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,5 %) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 715 tasi (21,2 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 281 tasi (8,7 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 258 tasi (8,0 %) kiyim ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-iyul holatiga ko'ra



II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy koʻrsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki maʼlumotlar boʻyicha 2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9611,6 mlrd soʻnlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,2 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd soʻn	Fizik hajm indeksi, % da
Surxondaryo viloyati	9 611,6	108,2
Termiz shahri	1033,2	112,6
tumanlar:		
Angor tumani	298,6	108,4
Bandixon tumani	253,0	119,1
Boysun tumani	142,1	113,1
Denov tumani	844,8	108,5
Jarqoʻgʻon tumani	812,4	110,2
Qumqoʻgʻon tumani	1069,0	119,1
Qiziriq tumani	152,4	104,1
Muzrabot tumani	379,8	104,3
Oltinsoy tumani	184,4	109,7
Sariosiyo tumani	499,0	109,1
Termiz tumani	599,5	149,2
Uzun tumani	294,4	109,1
Sherobod tumani	1037,9	117,6
Shoʻlchi tumani	458,0	107,2

Mavzuga doir koʻrsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz tumanida (6 633,5 ming soʻn), Termiz shahrida (4 833,5 ming soʻn), Sherobod tumanida (4 723,9 ming soʻn) oʻrtacha viloyat darajasi koʻrsatkichidan (3178,5 ming soʻn) sezilarli darajada yuqoriligini koʻrsatmoqda.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning oʻsish surʼati 105,9 % ni tashkil etgan boʻlsa, Termiz tumanida (144,9 %), Qumqurgon tumanida (116,6 %), Bandixon tumanida (116,0 %), Sherobod tumanida (115,5 %) , Boysun tumanida (111,1 %) qayd etilib viloyat koʻrsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyun oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, 8 711,8 mlrd soʻnni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (90,6 %) ni tashkil etgan holda togʻkon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 229,1 mlrd soʻn (2,4 %), elektr gaz bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashda 475,4 mlrd soʻn (4,9 %) hamda suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilishda 195,3 mlrd soʻn (2,0 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari boʻyicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-iyun oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar 6 230,8 t (6,2 m. ga), tozalangan paxta yog'i va uning fraktsiyalari 1 608,3 t (4,9 m. ga), tolali ulyuk - 307,8 ming t (4,3 m. ga), shag'al - 214,7 ming t (3,4 m.ga), ko'paygan, shuningdek tabiiy qumlar-10170,0 t (16,9 % ga), toshko mir-ming t 172,6 tonna (17,1% ga), xom neft (uglevodorodlarning tabiiy aralashmasi), jumladan bitumsimon jinslardan olingan neft-ming -150,0 t (20,1 % ga), kamaygan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun *	2025-yil yanvar-iyun *	2026-yil yanvar-iyun
Aroq, ming litr	69,9	3055,4	-
Paxta tolasi, tonna	7250,6	14310,0	14310,0
Paxta tolasidan yigirilgan ip, tonna	15405,3	35349,6	49304,9
Neft bitumi, ming t	23,9	20,7	16,0
Shag'al, ming t	-	64,0	214,7
Toshko'mir, ming t	264,5	208,2	172,6
Xom neft, ming t	35,9	32,8	26,2
Boshqa paxta chigiti, ming t	6,1	20,7	24,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	19,6	33,0	32,4
Portlandsement, ming t	525,7	114,4	144,2

*2024-2025-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi $\tilde{n}$ 24,2 % (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi $\tilde{n}$ 39,2 % (2025-yilning yanvar-iyun oylariga oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 119,8 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2025-yilning yanvar-iyun oylarida 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali $\tilde{n}$ 1,5 % (0,6 %), o'rta-quyi texnologiyali $\tilde{n}$ 16,5 % (26,2 %), quyi texnologiyali 81,3 % (72,5 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 116,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 1,6 m ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-iyun *	2025-yil yanvar-iyun *	2026-yil yanvar-iyun
Elektrenergiya, mln.kvt.s	334,0	360,5	420,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	11,7	9,3	14,9

**Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish
va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish hajmi**


Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yoʻqotish, transportirovka qilish va ishlov berish boʻyicha xizmatlarda 140,7 % ga, qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yigʻish boʻyicha xizmatlarda 124,5% ga koʻpayish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun *	2025-yil yanvar-iyun *	2026-yil yanvar- iyun
Oqova suvlarni yoʻqotish,transportirovka qilish va ishlov berish boʻyicha xizmatlar, mlrd soʻm	4,1	13,9	19,5
Suvga ishlov berish va suv quvurlari boʻyicha taqsimlash boʻyicha xizmatlar, mlrd soʻm	39,6	70,2	86,5
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yoʻqotish uchun ishlov berish boʻyicha xizmatlar, mlrd soʻm	8,5	23,4	26,0
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yigʻish boʻyicha xizmatlar, mlrd soʻm	-	5,1	6,3

**2024-2025-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan maʼlumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 658,8 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 58,9 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 72,0 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

Sanoat bu ñ xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini oʻzlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq isteʼmoli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmogʻi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi boʻyicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni mahsulot turlari boʻyicha shakllantirish Surxondaryo viloyatidagi iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (OʻzDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga togʻkon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bugʻ va konditsiyalangan havo, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yigʻish va qayta foydalanish boʻyicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat boʻyicha statistika maʼlumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) maʼlumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shugʻullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv maʼlumotlari; e) uy xoʻjaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'inishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ina indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug'bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
J. Mallayev
76 225-65-76 (7510)

Manzil:

